

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIM KO‘NIKMASINI TAKOMILLASHTIRSIH OMILLARI

Nazarova Feruza

Andijon viloyati Oltinko‘l tumani 28- maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta’lim ko‘nikmasini takomillashtirish omillari, chet tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari, o‘quvchilarning chet tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish uchun qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim texnologiyalari to‘g‘risida to‘liq bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiyalar, zamonaviy metodlar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari.

Kirish: Ma’lumki, tilni o‘rganish turmush tarzimizning hamma sohalaridagi har qanday yoshdagi ta’lim oluvchining va kishilarning muloqoti va shaxsiyatini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjimonlik, til o‘rganish kabi sohalarda xorijiy tillarni bilish insonning istiqbolini oshirishi mumkin. Xususan, xalqaro huquq sohasida tillarni bilish asosiy ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilini o‘qitish usullaridan yana biri – zamonaviy interaktiv usulidir. Usul mohiyatiga ko‘ra, darsda yangi grammatik mavzu e’lon etilib, avvalgi o‘tilgan mavzu bilan taqqoslash bilan anglatishi, mustahkamlovchi savollar bilan o‘quvchilarni fikrlashga jalb qilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: O‘quvchilar tomonidan ingliz tilida og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish mutaxassislik bo‘yicha suhbatni o‘tkazish, muhokamalar olib borish ko‘nikmalarini egallash, professional nuqtai nazardan chet tilidagi matnni izohlash va umumlashtirish, analiz va sintez qilish kompetensiyasini egallash zarurati bilan bog‘liq. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi asosiy omil sanaladi. Fonetik mashg‘ulotlarda esa, asosan, audiomatndagi qisqa suhbatlar tinglanib, xotirjam ko‘rinishida mazkur audiomatndagi suhbatga aynan mos bo‘lgan, so‘zlari tushirib qoldirilgan qog‘ozdagi

matn to'ldiriladi va internet tarmog'i yordamida o'qituvchiga yetkiziladi. O'quvchiga berilgan matn bilan audiomatndagi suhbat bir xil bo'ladi. Matn matnni mustaqil shaklda o'ta ziyraklik bilan tinglanib, yangi iboralarni yodda saqlab qolgandagina, o'quvchi shartni muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Bunda tinglab tushunish yordamida og'zaki nutq, ko'nikma va malakalar rivojlanib boradi. Tinglab tushunish o'qish jarayoni bilan uzviy bog'liq sanaladi.

Natijalar: Ingliz tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rganish va o'rganish eng samarali usullardan biri hisoblanib uni kommunikativ yondashuv bilan interfaol topshiriqlarni kombinatsion usulda foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Madaniyatlararo muloqot malakalarini takomillashtirish uchun o'quvchilarga ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakat madaniyati, urf-odatlar va an'analari haqida to'liq bilimlarni berish muhimdir, shunda o'quvchilar ob'ektiv tasavvurga ega bo'ladilar va o'zlarining muloqot uslubini ongli ravishda tanlay oladilar. Ingliz tili darslarida madaniyatlar muloqoti holatlarini modellashtirish o'quvchilarga davlatimizdagi va o'rganilayotgan til mamlakatlaridagi odamlarning turmush tarzi xususiyatlarini taqqoslash imkonini yaratadi, ularga mamlakatimiz madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi va uni ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday yondashuv faqat haqiqiy o'qitish vositalaridan foydalanilganda mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ingliz tilining muhim maqsadi kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish, ya'ni ona tilida so'zlashuvchilar bilan ingliz tilida shaxslararo va madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyatidir.

Muhokama: Tarbiya jihati ta'lim jarayonining ajralmas qismidir, shuning uchun hamma ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda yetuk shaxsning zaruriy fazilatlarini tarbiyalashni ta'minlaydi. O'quvchining ingliz tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun foydalaniladigan zamonaviy ta'lim texnologiyalari ta'lim jarayonining hamma ishtirokchilarining shaxsga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan ta'lim sharoitini yaratish uchun eng samarali sanaladi. Binobarin, har qanday o'qitish texnologiyasidan foydalanish qanchalik mukammal bo'lmasin, o'quvchilarning qobiliyatlarini paydo bo'lish va shakllantirish, o'qituvchining ijodiy izlanishlari uchun eng samarali sharoit yaratib bera olmaydi. Yangi pedagogik texnologiyalarni qidirish ayrim o'quvchilarda ingliz tilini o'rganishga ijobiy

motivatsiyaning yoʻqligi bilan bogʻliq. Ijobiy motivatsiya yetarli emas, baʼzan esa yoʻq, chunki ingliz tilini oʻrganishda ular yuqori qiyinchiliklarga duch kelishadi va psixologik xususiyatlari sababli materialni oʻzlashtirmaydilar.

Xulosa: Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, oʻquvchining mustaqil taʼlim rivojlantirish uchun ingliz tilini oʻqitish jarayonida zamonaviy taʼlim texnologiyalarini integratsiyalash bilan shugʻullanar ekanmiz, bir necha yillar mobaynida zamonaviy rus va chet el oʻqituvchilarining innovatsion gʻoyalari sinchkovlik bilan oʻrganish kerak. Oʻquvchining subʼektiv tajribasini ochib berishga, uning uchun shaxsan ahamiyatli boʻlgan tarbiyaviy ish usullarini rivojlantirishga, axloqiy ideallarni tarbiyalashga, tanqidiy fikrlashni takomillashtirishga, adekvat baholashga va oʻzini oʻzi boshqarishga yordam beradigan mazkur pedagogik tizim sanaladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. E.S. Poʻlat. Chet tillarni oʻqitishda yangi pedagogik texnologiyalar. Maktabda chet tillari - 2002.
2. Otaboyeva, M. P. Chet tilini oʻqitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. —2017.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. “Chet tilini oʻqitishda yordamchi vositalardan foydalanish”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Oʻ.Hoshimov, I. Yoqubov. “Ingliz tili oʻqitish metodikasi” Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2003.
5. N.Q.Xatamova, M.N.Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qoʻllaniladigan interfaol usullar”, Navoiy, 2006.